



## O'QUVCHILAR ONGIDA BUNYODKORLIK G'OYALARINI BUYUK ALLOMALARIMIZ O'GITLARI ORQALI SINGDIRISH

**Zulfikorov Ixtiyor Axmadovich**

SamDU Urgut filiali, Maktabgacha ta'lim va pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Gmail: [ixtiyorzulfiqorov@gmail.com](mailto:ixtiyorzulfiqorov@gmail.com)

**Zulfiqorova Zilola Zokirovna**

Urgut tuman 154-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Gmail: [zilola\\_zulfiqorova@gmail.com](mailto:zilola_zulfiqorova@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8103377>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab yoshidagi o'quvchilarda bunyodkorlik g'oyalarini singdirishda buyuk allomalarimiz o'g'itlari, pand-nasixatlari, bizga qoldirgan durdona asrlari orqali o'quvchilarda bunyodkorlik ruxida tarbiyalash ko'zda tutilgan. Bundan tashqari yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, keng dunyo qarashli, ezgu g'oyalarga asoslangan, intellektual salohiyatga ega bo'lgan barkamol yoshlarga tarbiya berish haqidagi fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ezgulik, tubanlik, bunyodkorlik, isyonkorlik, intellektual salohiyat, barkamol


**Abstract:** In this article, instilling creative ideas in school-aged students, it is intended to educate students in the spirit of creativity through the teachings, teachings, and masterpieces left by our great scholars. In addition, opinions were expressed about educating young people who think independently, have a broad world view, are based on noble ideas, and have intellectual potential.

**Key words:** Virtue, humility, creativity, rebellion, intellectual potential, well-rounded

Ezgulik va tubanlik, bunyodkorlik va isyonkorlik, yangilik va eskilik o'rtasidagi kurash juda qadimdan mavjud bo'lib, hech qachon tugamaydi. Inson bunday kurashda bunyodkor g'oyalarga tayanadi. Bunyodkorlik g'oyalari insonni ulug'laydi, uning ruhiga qanot bag'ishlaydi. Bunyodkor so'zining ma'nosi yaratuvchi deganidir. Shundan kelib chiqqan holda, bunyodkor g'oyaga bunday ta'rif berish mumkin:

**Bunyodkor g'oya deb,** *insonni ulug'laydigan, uning kuch-g'ayrati va salohiyatini oshirib, xalqi, Vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safarbar etadigan, o'zida mehnat, taraqqiyot, do'stlik, tinchlik, adolat, halollik kabi ezgu maqsadlarni mujassam etadigan g'oyaga aytiladi.*

Insonning qalbi va ongida yaratuvchilik salohiyatini uyg'otib, o'z xalqi, Vatani va insoniyatga foydali ishlar qilishga safarbar etadigan g'oya bunyodkor g'oyadir. Har bir xalq hayotida bunyodkor g'oyalar yetakchi o'rinda turadi.





Chunki har bir xalq o'zining nimalarga qodir ekani, yaratuvchilik qudratini faqat bunyodkorlik orqali namoyon etadi.

O'sha davrning buyuk mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning bu boradagi qarashlari ham o'ziga xosdir. Ular har bir narsani kuzatish va tajriba asosida o'rganishga, keyin xulosa chiqarishga intilganlar, barcha bunyodkorlik insonning mehnatiga bog'liqligini ta'kidlaganlar. Quyida Abu Rayxon Beruniy hikmatlaridan namunalar keltiramz:

\*Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko'r qilib qo'yadigan holatlardan, chunonchi, qotib qolgan urf odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko'zlikni quli bo'lishdan ozod bo'lmog'i darkor.

\*Bilimlilik orqali nodonlik ko'tariladi, azob-uqubat bo'lgan shak-shubha o'rniga ilm natijasida aniqlik kiradi.Билимлилик орқали нодонлик кўтарилади, азоб-уқубат бўлган шак-шубҳа ўрнига илм натижасида аниқлик киради.

\*Odam hamisha boshqalarga yaxshilik ko'rsatishi kerak. Agar yaxshilik qilish imkoniga ega bo'lmasa yaxshi tilaklar izxor etsin.

Abu Ali ibn Sino qarashlari:

Ibn Sino bilim olishda bolalarni jamoa bo'lib maktabda o'qitish zarurligini ko'rsatadi va ta'limda quyidagilarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi: 1) bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band kilib ko'ymaslik; 2) ta'limda engildan qiyinga [ori shorkali bilim berish](#); 3) olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi; 4) o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish; 5) bilim [berishda bolalarning mayli](#), qiziqishi [va qobiliyatini hisobga olish](#); 6) o'qitishni jismoniy mashqlar bilan ko'shib olib borish.

Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy esa o'z asarlari bilan jamiyat taraqqiyotining zamonasiga xos fazilatlarini yoritishga harakat qilgan. U she'rlari va dostonlarida razolatga, beqarorlikka, urushu janjallarga, ma'rifatsizlikka qarshi kurash g'oyalarini ulug'laydi. Insonlarni mehnatga, yaratuvchanlikka, adolatga chaqiradi. Ma'rifatga asoslangan jamiyat yaratishni orzu qiladi. Uning bu orzulari «Farhod va Shirin», «Saddi Iskandariy» kabi dostonlarida o'z ifodasini topgan. Shoirning bevosita o'zi ham qator bunyodkorlik ishlariga bosh-qosh bo'lgan.

[“Farhod va Shirin”da](#) qahramonlar sevgi sarguzashtlari orqali insonning tarix va kelajak oldidagi vazifasini belgilaydi, insonlik faqat muhabbatda emas, balki o'sha sharaflil nomning himoyasi orqali ekanini uqdiradi. Sharq tarixidagi Xusrav va Shirin voqeasini badiiy jihatdan qayta ishlab, Farhod orqali o'zining komil inson haqidagi qarashlarini ifoda qilgan.





Navoiy “Saddi Iskandariy” asari avvalida, salaflaridan farqli o‘laroq, tarixiylikka, ko‘proq tarix kitoblariga tayanib ish ko‘rganini yozadi. Navoiy bu o‘rinda o‘z asarida Iskandar haqidagi boblar izchilligining Qur‘ondagi Zulqarnayn haqidagi oyatlarga hamda tarixiy shaxs Aleksandr faoliyatiga muvofiq kelishini nazarda tutgan. Dostonning „Saddi Iskandariy“ deb nomlanishida ham Qur‘oni karimning Navoiy uchun birlamchi manba bo‘lganligi seziladi.

Navoiy talqinida Iskandar odil shoh, u dunyoni kufrdan, jaholatdan tozalab, butun dunyoda adolatni joriy etish, bashariy tartib-qoidalarni katta olamdagi tartib qoidalarga muvofiqlashtirish maqsadida xalqlar ustiga yurishlar qilgan. Bu esa sufiyona talqin bo‘lib, dostondagi muqaddima boblar, Iskandar voqealari hikoya qilingan boblar hamda unga ilova boblarda ham shoirning tasavvufiy qarashlari ustuvorligini ko‘rish mumkin. Mas, Iskandar shisha sandiq yasab, dengiz tubiga tushadi, turfa ajoyibotlarni ko‘rib, vataniga qaytadi. U vafot etar ekan, bir qo‘lini tobutdan chiqarib qo‘yishlarini so‘raydi. Asarda Navoiy insonni bu foniy dunyo hoyu havaslariga ortiqcha ruju qo‘ymaslikka chaqirib, garchi Iskandar jahonni egallagan jahongir bo‘lsada, u narigi dunyoga hech narsasiz ketayotganligiga ishora qiladi.

Siz buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur tomonidan Shahrisabzdagi Oqsaroy peshtoqiga bitilgan «Kimki qudratimizga shubha qilsa, biz qurgan binolarga boqsin» degan mazmundagi da‘vatkor so‘zlarini yaxshi bilasiz. Bu so‘zlarda xalqimizning bunyodkorlik salohiyati, kuch-qudrati qanchalik katta ekaniga ishora qilingan. Zamonaviy jahongir bobomiz o‘z davlati va xalqining shuncha qudratli belgilarida shuni tasdiqlamoqdaki, hatto faqat bittasi va eng asosiysiga urg‘u bergan. U ham bo‘lsa, xalqning bunyodkorligi. Buning zamirida katta ma‘no bor. Bu ma‘no shudan iboratki, Amir Temur davlati erishgan barcha yutuqlar avvalambor xalqning bunyodkorligiga asoslangan. Bu fazilatimiz esa o‘sha paytda barpo etilgan go‘zal va betakror obidalarda yaqqol namoyon bo‘lgan. Bunday buyuk- fazilatlar bizning olis tariximiz davomida shakllanishi muttasil boyib borgan bunyodkor g‘oyalardan oziqlangan. Bebaho ma‘naviy merosimiz bo‘lmish “Avesto” kitobidagi «Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal» degan qoida xalqimizning qadim zamonlardan boshlab bunyodkorlikni o‘zi uchun asosiy maqsad asosiy mafkura deb bilganidan dalolat beradi. Bu qoida zamiri insonning o‘ylaydigan fikrida ham, gapiradigan gapida ham, qiladigan ishida ham faqat yaxshilik bo‘lsin, shunda uning butun hayoti bunyodkorlikdan iborat bo‘ladi, degan ma‘no mujassam. Yoki yana bir buyuk ajdodimiz Bahouddin Naqshbandning «Diling Oллоhda, qo‘ling mehnatda bo‘lsa degan da‘vatini eslab





ko'raylik. Bu hikmat har bir ishingizni aniq maqsadni ko'zlab, oxirini o'ylab qiling, vaqtni bekor o'tkazmang, degan ibratli fikrni ifoda etadi. «Otabobolarimiz ulug' avliyo Bahouddin Naqshbandga chin dildan ixlos qo'yib, uni «Bahouddinni Balogardon» deb ta'riflar kelishida teran ma'no bor. Uning «Diling Ollohda, qo'ling mehnatda bo'lsin» degan hayotbaxsh hikmati dinimizning oliyjanob ma'nolar mohiyatini yorqin ifodalab, xuddiki shu bugun aytilgandek ja- ranglaydi». Toki eng mayda hasharotlar ham dunyoda qandaydir ekologik muvozanatni saqlab turadi. Agarda ular yo'qotilsa, olamdagi umumiy muvozanat buziladi. Ulug' bobomiz ana shu haqiqatni nazarda tutib, insonlarga qarata, sen ham Ollohdan ibrat ol, erta-yu kech mehnatda bo'l, harakatdan to'xtama, demoqda, harakat esa, bunyodkorlikdir. Chin dildan harakat qilmaydigan, o'ylamaydigan, mustaqil fikrlay olmaydigan, kim nima buyursa indamay bajarib ketaveradigan odamning ishini esa bunyodkorlik deb bo'lmaydi. Faqat sidqidildan qilingan mehnatdan haqiqiy mo'jizalar bunyodga keladi.

Bunyodkor g'oyalar insonlar va xalqlar qalbidagi ezgu maqsadlardan paydo boladi. Insonni — Yaratganning buyuk mo'jizasi, ulug' va betakror zot, tabiat gultoji, aql-idrok, tafakkur egasi deymiz va hokazo. Bu ta'riflarning barchasi to'g'ri. Lekin insonni ana shu ta'riflarga munosib qilgan uning bunyodkorligidir. Agar inson aqli bilan o'ylab-fikrlab ijod qilmasa, kuch-g'ayrat sarflab, tengsiz mo'jizalar yaratmasa edi, unga shuncha ta'rif berilmagan bo'lardi. Bunyodkorlik avvalo tabiatga xos. Mo'jizalarga to'la olamning yaratilishi - haqiqiy ijodkorlik va bunyodkorlik mahsuli. Inson esa aql-u zakovati, bunyodkorlik tuyg'usi bilan boshqa jonzotlardan ustun turadi. Xulosa qilib aytganda, bunday allomalari bor yurt farzandlari iste'dodi ravnaq topishi, el-yurtga xizmat qiladigan yetuk shaxs bo'lib kamol topishi shak-shubhasizdir. Bugungi kun avlodlari ajdodlarimizga munosib farzand bo'lib yetishishlari va yurtimiz nomini butun dunyoga tanitishlari lozim. toki insonning ezgu intilishlari, oliyjanob maqsadlari, qalbida adolat va haqiqatga ishonch hissi bor ekan, bunyodkor g'oyalar hech qachon yo'qolmaydi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T: Ma'naviyat. 2008.
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. // “Tafakkur” jurnali, 1998.
3. Temur tuzuklari. T. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991, 112b.
4. Otamurodov S. Markaziy Osiyo g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. “Ijod dunyosi”-T.2002





**THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF  
PEDAGOGICAL SCIENCES**

International scientific-online conference



5. [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)

